



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz

№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 336 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarining raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV VA ZAMONAVIY O'QITISH STRATEGIYALARINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llashning nazariy va amaliy jihat-lari tahlil qilinadi. O'quvchilarning bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashi, mustaqil fikrlashi, muammoni hal etishi va ham-korlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy o'qitish strategiyalarining o'rni yoritiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, muammoli ta'lim hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy o'qitish strategiyalari, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tayanch kompetensiyalar.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of implementing a competency-based approach in primary education. It examines the role of modern teaching strategies in developing pupils' ability to apply knowledge in practical situations, think independently, solve learning problems, and work collaboratively. The article also substantiates the importance of interactive methods, problem-based learning, and the purposeful use of information and communica-tion technologies in developing primary school pupils' key competencies.

Key words: competency-based approach, primary education, modern teaching strategies, interactive methods, prob-lem-based learning, information and communication technologies, key competencies.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и практические аспекты применения компетентностного подхода в начальном образовании. Раскрывается роль современных образовательных стратегий в развитии у учащихся способности применять знания в практических ситуациях, самостоятельно мыслить, решать учебные задачи и взаимодействовать в группе. Обосновывается значение интерактивных методов, проблемного обучения и целенаправленного использования информационно-коммуникационных технологий в формировании ключевых компетенций учащихся начальных классов.

Ключевые слова: компетентностный подход, начальное образование, современные стратегии обучения, инте-рактивные методы, проблемное обучение, информационно-коммуникационные технологии, ключевые компе-тенции.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, globallashuv jarayonlarining jadal-lashuvi, axborot hajmining keskin ortishi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari ta'limning maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'lim endilikda o'quvchilarga muayyan hajmdagi nazariy bilimlarni yetkazish bilangina cheklanmay, ularda egallangan bilimlarni turli hayotiy vaziyatlarda qo'l-lash, mustaqil fikrlash, muammoli holatlarga oqilona yechim topish, axborotni tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Mazkur talablar ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda.

Kompetensiyaviy yondashuv o'quvchining faqat bilim darajasini emas, balki ushbu bilimlardan amaliy faoliyatda samarali foydalanish qobiliyatini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunda ta'lim natijalari o'quv-chining o'zlashtirgan ma'lumotlari hajmi bilan emas, balki uning hayotiy vaziyatlarda faol harakat qilishi, mavjud muammolarni aniqlashi, ularni hal etish yo'llarini belgilashi hamda o'z faoliyati natijalarini baholay olishi orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan kompetensiyaviy yondashuv ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va baholash mezonlarini o'quvchining amaliy faoliyatiga yo'naltirishni talab etadi.



Boshlang'ich ta'lim bosqichi kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida alohida pedagogik ahamiyatga ega. Chunki aynan ushbu davrda bolaning shaxsiy fazilatlarini, bilishga bo'lgan ehtiyoji, o'quv faoliyatiga munosabati, muloqot madaniyati, mustaqil fikrlashi va atrof-muhitni anglash ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Boshlang'ich sinflarda yaratilgan mustahkam bilim, ko'nikma va malakalar keyingi ta'lim bosqichlarida o'quvchining muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun asos vazifasini bajaradi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarni nafaqat fanlarga oid bilimlar bilan qurollantirish, balki ularni real hayotga tayyorlashning muhim sharti hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun shaxs nazariy bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda, ularni amaliyotda qo'llay olish, turli axborot manbalari bilan ishlash, o'z fikrini aniq va asosli ifodalash, jamoada hamkorlik qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur. An'anaviy ta'lim modeli ko'p hollarda tayyor bilimlarni o'quvchiga yetkazish va ularni qayta takrorlashga yo'naltirilganligi sababli o'quvchilarning amaliy faoliyati, tashabbuskorligi va mustaqil izlanish ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantirish imkonini bermaydi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirib, uning bilimlarni mustaqil egallashi, ularni yangi vaziyatlarga ko'chira olishi va kundalik hayotda samarali qo'llashiga xizmat qiladi ^[9].

Boshlang'ich ta'lim shaxsning keyingi intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishning dastlabki hamda hal qiluvchi bosqichi hisoblanadi. Aynan boshlang'ich sinflarda o'quvchining o'qish, yozish, hisoblash, tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq orqali o'z fikrini ifodalash, axborotni qabul qilish hamda o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etishga oid tayanch ko'nikmalari tarkib topadi. Mazkur bosqichda egallangan bilimlar, o'zlashtirilgan faoliyat usullari va shakllangan o'quv odatlari keyingi ta'lim jarayonida murakkab tushunchalarni o'zlashtirish, fanlararo bog'lanishlarni anglash hamda yangi bilimlarni mustaqil egallash uchun muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchining bilimlarni qanday usulda o'zlashtirishi bilan bevosita bog'liq. Agar o'quvchi ta'limning dastlabki bosqichidanoq ma'lumotlarni tayyor shaklda qabul qilish, yodlash va qayta takrorlashga odatlansa, u egallagan bilimlarini yangi yoki nostandart vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Bunday yondashuv o'quvchining mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va muammoni hal etishga doir faoliyatini cheklaydi. Aksincha, savol berish, kuzatish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab va oqibat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, xulosa chiqarish hamda o'z fikrini dalillar asosida ifodalashga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining bilish faolligini kuchaytiradi.

Bunday ta'lim muhiti o'quvchining dars jarayonidagi ishtirokini faollashtirib, uni tayyor bilimlarni qabul qiluvchi shaxsdan mustaqil izlanadigan, fikrlaydigan va qaror qabul qiladigan faol subyektga aylantiradi. Shu bilan birga, o'quv topshiriqlarining real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lanishi bolalarda bilimning amaliy ahamiyatini anglash, o'z tajribasidan foydalanish hamda o'rganilgan faoliyat usullarini boshqa vaziyatlarga ko'chirish qobiliyatini shakllantiradi. Mazkur jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ta'lim mazmunini kutiladigan natijalar va kompetensiyalar asosida tashkil etish davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son¹ qarorida davlat ta'lim standartlari ta'lim mazmuni, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, ular egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar, kutiladigan ta'lim natijalari hamda ushbu natijalarni baholash mexanizmlariga qo'yiladigan talablarni belgilashi qayd etilgan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat ta'lim jarayonini aniq natijalarga yo'naltirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Shuningdek, ushbu hujjatda ta'limning o'quvchi shaxsiga yo'naltirilishi, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va intilishlarini hisobga olish davlat ta'lim standartlarining muhim prinsipi sifatida e'tirof etilgan. Mazkur prinsip boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, differensial va faoliyatga asoslangan metodlardan foydalanish, har bir bolaning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. Shu jihatdan kompetensiyaviy yondashuv davlat ta'lim siyosatining ustuvor talablarini amalga oshirish, ta'lim sifati va natijadorligini oshirish hamda o'quvchini kundalik va kelajakdagi faoliyatga tayyorlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi ^[10].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy-nazariy asoslari ta'lim natijasini o'quvchi tomonidan egallangan bilimlar miqdori orqali baholashdan uning turli vaziyatlarda samarali faoliyat yurita olish imkoniyatini aniqlashga o'tish bilan tavsiflanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining DeSeCo loyihasida kompetensiya shaxsning murakkab talablarni qondirish uchun bilim, ko'nikma, munosabat va mavjud resurslarni o'zaro uyg'un-

1 <https://lex.uz/ru/docs/-6854214>



lashtira olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Mazkur konsepsiyada kompetensiyalar vositalardan interaktiv foydalanish, turli ijtimoiy guruhlarda hamkorlik qilish va mustaqil harakat etish kabi yo'nalishlarda tizimlashtirilgan. Keyingi tadqiqotlarda ushbu qarashlar yanada rivojlantirilib, kompetensiya tarkibiga bilim va amaliy ko'nikmalar bilan birga qadriyatlar, mas'uliyat, tashabbuskorlik hamda o'z faoliyatini boshqarish xususiyatlari ham kiritilgan.

Yevropa Ittifoqining uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetensiyalar to'g'risidagi tavsiyalarida savodxonlik, ko'p tillilik, matematik va tabiiy-ilmiy kompetensiyalar, raqamli savodxonlik, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish, fuqarolik, tadbirkorlik hamda madaniy xabardorlik o'zaro bog'liq ta'lim natijalari sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuvlar tahlili kompetensiyaning alohida bilim yoki ko'nikma bilan cheklanmasligini, uning shaxsning muayyan sharoitda maqsadga muvofiq harakat qilishi, tanlovini asoslay olishi va erishilgan natijani baholashi bilan namoyon bo'lishini ko'rsatadi ^[1; 2].

Boshlang'ich ta'limga oid xalqaro ilmiy va metodik manbalarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bolaning keyingi rivojlanishini belgilovchi uzluksiz jarayon sifatida yoritiladi. OECD tomonidan ishlab chiqilgan "Ta'lim kompassi – 2030" konsepsiyasida o'quvchining bilim, ko'nikma, munosabat va qadriyatlarni birgalikda qo'llashi, o'z faoliyatining faol ishtirokchisiga aylanishi hamda qabul qilgan qarorlarining oqibatlarini tushunishi muhim natija sifatida belgilanadi. Mazkur konsepsiyada o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalari keyingi o'quv faoliyatining asosiy poydevori bo'lishi bilan birga, raqamli savodxonlik, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, salomatlik madaniyati va mas'uliyatli xulq ham ta'limning tayanch asoslari qatoriga kiritiladi.

UNESCO materiallarida esa kompetensiyaviy ta'limning samaradorligi o'quv topshiriqlarining o'quvchi hayoti bilan bog'lanishi, ta'lim mazmunining mahalliy sharoitga moslashtirilishi va o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydigan metodlardan foydalanishga bog'liqligi ta'kidlanadi. Bunday qarashlar boshlang'ich sinflarda kompetensiyalarni faqat fan doirasida shakllantirish yetarli emasligini ko'rsatadi. O'quvchi o'zlashtirgan bilimni muloqot, kundalik hisob-kitob, axborotni tushunish, muammoni aniqlash, guruhda ishlash va shaxsiy xatti-harakatini tartibga solish jarayonlarida qo'llay olgandagina mazkur bilim funksional xususiyat kasb etadi ^[3; 4].

Mavjud pedagogik adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish o'quv dasturini yangilash bilangina yakunlanmaydigan murakkab tizimli jarayon sifatida baholanadi. Uning amaliy samaradorligi o'quv maqsadlari, dars mazmuni, pedagogik metodlar, o'quv topshiriqlari va baholash vositalari o'rtasidagi izchil bog'lanishga bevosita aloqador. Kompetensiyaga yo'naltirilgan darsda o'quvchidan ma'lumotni takrorlashdan ko'ra, uni sharhlash, taqqoslash, yangi sharoitga moslashtirish, muammoni hal qilish va o'z qarorini asoslash talab etiladi. Shu sababli muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, kichik tadqiqotlar, loyihaviy faoliyat, rolli o'yinlar, kuzatish, tajriba va refleksiv mashqlar mazkur yondashuvning muhim metodik vositalari hisoblanadi.

Biroq adabiyotlar tahlili kompetensiyaviy o'qitish jarayonida ayrim metodik muammolar mavjudligini ham ko'rsatadi. Jumladan, kompetensiyalarni umumiy va mavhum shaklda ifodalash, ularni aniq kuzatiladigan natijalarga aylantirmaslik, baholashda asosan yakuniy javobga e'tibor qaratish hamda o'quvchilarning individual rivojlanish sur'atlarini hisobga olmaslik kutilgan samarani pasaytirishi mumkin. Shu bois boshlang'ich ta'limda har bir kompetensiyaning yoshga mos ko'rsatkichlarini belgilash, topshiriqlarni sodda vaziyatlardan murakkab vaziyatlarga qarab bosqichma-bosqich tashkil etish va muntazam qayta aloqa berish zarur ^[4; 5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy qarashlarni tizimli o'rganish, boshlang'ich ta'limga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash va mavjud metodik holatni baholashga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning o'zaro aloqadorligi tashkil etdi.

Nazariy bosqichda pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish, ilmiy tushunchalarni taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish va ilmiy sintez metodlaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil yordamida kompetensiya tushunchasining turli manbalardagi talqinlari, uning tarkibiy qismlari va boshlang'ich ta'lim natijalari bilan bog'lanish xususiyatlari aniqlandi.

Kontent-tahlil asosida o'quv maqsadlari, kutiladigan natijalar, amaliy topshiriqlar va baholash mezonlarida kompetensiyaviy yo'nalishning namoyon bo'lish darajasi o'rganildi.

Empirik ma'lumotlar zarur bo'lgan holatlarda pedagogik kuzatish, o'qituvchilar bilan suhbat, savolnoma, o'quvchilarning yozma va amaliy ishlarini tahlil qilish hamda diagnostik topshiriqlardan foydalanish nazarda tutildi.

Olingan natijalarni tahlil qilishda sifat ko'rsatkichlari bilan miqdoriy ma'lumotlarning o'zaro to'ldirilishi tadqiqot xulosalarining asoslanganligi va ishonchlilikini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqot metodlarini bunday uyg'unlikda qo'llash o'rganilayotgan hodisani faqat nazariy jihatdan tavsiflash bilan cheklanmasdan, uning real ta'lim jarayonidagi holatini, imkoniyatlarini va rivojlantirish yo'llarini aniqlashga yordam beradi ^[6].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan nazariy tahlil kompetensiyaviy yondashuvni boshlang'ich ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarning bilimlarni shunchaki o'zlashtirishi bilan cheklanmay, ulardan turli o'quv va hayotiy vaziyatlarda foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'quvchi tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi emas, balki savol beruvchi, kuzatuvchi, taqqoslovchi, muammoni aniqlovchi va yechim izlovchi faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quv topshiriqlarining kundalik hayot bilan bog'lanishi, muammoli vaziyatlar asosida tuzilishi, o'quvchilarning fikrini erkin ifodalashi va o'z qarorini asoslashiga imkon berishi muhim metodik natija sifatida aniqlandi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning faqat fan bo'yicha tayyorgarligini emas, balki muloqot qilish, axborotni tushunish, mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuvning samaradorligi dars maqsadi, mazmuni, metodlari, topshiriqlari va baholash mezonlari o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liq ekani kuzatildi. Agar dars maqsadi kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa-yu, topshiriqlar faqat yodlash va qayta bayon qilishni talab etsa, kutilgan natijaga erishish qiyinlashadi. Demak, ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini yagona natijaga yo'naltirish kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga samarali tatbiq etishning asosiy shartlaridan biridir.

Muhokama natijalari boshlang'ich ta'limda kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich metodik tizim yaratish zarurligini ko'rsatdi. Dastlab o'quvchiga tanish bo'lgan sodda vaziyatlar asosida topshiriqlar berilishi, keyinchalik esa ularni murakkabroq va yangi sharoitlarda qo'llashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'qituvchining vazifasi tayyor javobni taqdim etishdan ko'ra, o'quvchining izlanishi, mustaqil xulosa chiqarishi va o'z faoliyatiga munosabat bildirishini qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ladi. Shuningdek, baholash jarayonida faqat yakuniy javobning to'g'riligi emas, balki o'quvchining fikrlash yo'li, topshiriqni bajarish usuli, dalillardan foydalanishi, xatolarini ang'ay olishi va ularni tuzatishga intilishi ham e'tiborga olinishi lozim. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv boshlang'ich ta'limda ta'lim mazmunini amaliy faoliyat bilan bog'lash, o'quvchilarning bilishga qiziqishini kuchaytirish va ularda uzluksiz ta'lim olishga tayyorlikni shakllantirish imkonini beradi. Shu asosda boshlang'ich ta'limda muammoli, amaliy, tadqiqotga yo'naltirilgan va refleksiv topshiriqlardan tizimli foydalanish, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish hamda kompetensiyalarni baholashga mo'ljallangan aniq mezonlarni ishlab chiqish ta'lim sifatini oshirishning muhim yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv samaradorligini oshirish uchun, birinchidan, dars jarayoniga real hayotiy vaziyatlarga asoslangan muammoli, amaliy va tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlarni muntazam joriy etish hamda ularni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish tavsiya etiladi; ikkinchidan, o'quvchilarning faqat yakuniy javobini emas, balki fikrlash jarayoni, mustaqil xulosa chiqarishi, o'z qarorini asoslay olishi va bilimni yangi vaziyatlarda qo'llash darajasini aniqlaydigan aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchilarning ushbu mezonlardan foydalanish bo'yicha metodik tayyorgarligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash ta'limning mazmuni va natijasiga yangicha mezonlar asosida qarash zaruratini yuzaga keltirishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchining intellektual salohiyati, ijtimoiy faolligi, mas'uliyat hissi va o'z faoliyatini boshqarish qobiliyati o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Natijada boshlang'ich ta'lim faqat keyingi bosqichga tayyorlovchi jarayon sifatida emas, balki shaxsning kelajakdagi ta'limiy, ijtimoiy va kasbiy moslashuviga asos yaratuvchi muhim pedagogik makon sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda o'quvchi rivojlanishining individual sur'ati, ta'lim muhiti, pedagogik qo'llab-quvvatlash va natijalarni izchil kuzatib borish bir butun tizim sifatida tashkil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD. The Definition and Selection of Key Competencies: Executive Summary. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2005.
2. Council of the European Union. Council Recommendation of 22 May 2018 on Key Competences for Lifelong Learning. Official Journal of the European Union, 2018/C 189/01.
3. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. Paris: OECD, 2019.
4. UNESCO. Competency-Based Curricula in Eastern and Southern Africa: A Synthesis of Evidence and Experiences. Paris: UNESCO, 2025.
5. UNESCO International Institute for Capacity Building in Africa. Training Teachers to Implement a Competency-Based Curriculum. Addis Ababa: UNESCO-IICBA, 2025.
6. Cohen, L., Manion, L., Morrison, K. Research Methods in Education. 8th ed. London–New York: Routledge, 2018.
7. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
8. Xolmurodov Sh. Zamonaviy pedagogika. – Toshkent: Fan, 2021.
9. Muslimov N. Ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.